

GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-178-181>

Alimov Obidjon Sultanmurod o'g'li
Assistent o'qituvchi, Turon universiteti,
Qarshi shahri,
alimov-obidjon_5@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola gender tengligi tushunchasining ilmiy asoslarini keng yoritib, tarixiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy kontekstda uning mazmunini tahlil qiladi. Gender tengligi erkaklar va ayollarning teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlaydigan tushuncha sifatida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Gender tenglik, inson huquq va erkinliklari, xotin-qizlar, erkaklar, ayol qiyofasi, oila, nikoh, mehnat, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

Insoniyat taraqqiyotining tarixiy bosqichlariga nazar tashlanadigan bo'lsa, erkaklar va ayollar o'rtasidagi teng huquqlilik masalasi doimiy ravishda murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida shakllanib kelganini ko'rish mumkin. Dastlabki jamiyatlarda ijtimoiy hayotning ko'plab sohalarida ayollarning huquqiy va siyosiy imkoniyatlari cheklangan bo'lib, bu holat asrlar davomida barqaror stereotiplarga aylangan. Mazkur masala tarix davomida ko'plab olimlar, faylasuflar va huquqshunoslar tomonidan turlicha talqin qilingan hamda keng ko'lamli ilmiy munozaralarga sabab bo'lgan.

Sharq mutafakkirlari qarashlarida ham gender masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy o'zining “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyat taraqqiyoti bevosita ta'lim va tarbiya bilan bog'liqligini asoslab beradi. Unga ko'ra, xotin-qizlar ham erkaklar bilan teng ravishda bilim olish huquqiga ega bo'lishi lozim. Forobiy ayolning oiladagi o'rni, ayniqsa, farzand tarbiyasidagi mas'uliyati jamiyatning kelajak taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatishini alohida urg'u bilan ta'kidlaydi. Shu bois, ayollarning bilimli va ma'rifatli bo'lishi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega masala sifatida qaraladi.

Gender tushunchasi ayol va erkak munosabatlarining nafaqat ijtimoiy-psixologik jihatlarini, balki siyosiy, huquqiy va iqtisodiy sohalaridagi holatini ham qamrab oladi. Ayniqsa, inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan asosiy xalqaro hujjatlar mazkur prinsipni mustahkamlashga xizmat qiladi. 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi erkaklar va ayollarning teng huquqliligini e'tirof etgan dastlabki fundamental hujjatlardan biri hisoblanadi. Unda har bir inson irqi, teri rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy qarashlari yoki boshqa ijtimoiy belgilaridan qat'i nazar, barcha huquq va erkinliklardan teng foydalanishi lozimligi qat'iy belgilab qo'yilgan.[1] Mazkur deklaratsiyada ilgari surilgan tamoyillar keyinchalik ko'plab davlatlarning milliy qonunchiligida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasida ham mustahkamlandi. Konstitutsiyaga muvofiq, mamlakatimizda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo‘lib, ularning huquq va erkinliklari jinsi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi yoki shaxsiy mavqeidan qat’i nazar kafolatlanadi.[2] Ushbu norma gender tengligining konstitutsiyaviy-huquqiy asosini tashkil etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, huquqiy tenglik masalasida “kamsitish” tushunchasini to’g’ri anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday farqlash kamsitish sifatida baholanavermaydi. Masalan, muayyan yoshga yetmagan shaxslarga ayrim huquqlarning berilmasligi asosli hisoblanadi. Biroq huquq va erkinliklarning faqat erkaklar yoki faqat ayollarga berilishi, jinsga asoslangan cheklovlarining joriy etilishi gender kamsitishining aniq ko‘rinishi hisoblanadi. Bunday holatlar insonning asosiy huquqlaridan foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

Gender tengligi prinsipi nafaqat siyosiy va ijtimoiy sohalarida, balki oilaviy munosabatlarda ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir. Ushbu prinsip nikoh munosabatlarida ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, nikoh erkak va ayolning o‘zaro roziligi hamda teng huquqliligi asosida tuziladi. Oila kodeksining 19-moddasida oilada er va xotinning teng huquqliligi[3] ham barcha fuqarolarning oilaviy munosabatlarda teng huquqqa egaligi mustahkamlangan. Oilaviy munosabatlarda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi yoki shaxsiy mavqeiga ko‘ra huquqlarni cheklash yoki muayyan afzalliklar belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu normalar oila institutining mustahkamligi, adolatli va sog‘lom muhitda shakllanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Gender tengligi oilada nafaqat huquqiy muvozanatni, balki o‘zaro hurmat va mas’uliyatni ham mustahkamlaydi.

Mehnat munosabatlari sohasida ham gender tengligini ta’minlash dolzarb vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida barcha fuqarolarning mehnat huquqlaridan foydalanishda teng imkoniyatlarga egaligi belgilab qo‘yilgan. Jinsi, yoshi, millati, diniy e’tiqodi yoki boshqa shaxsiy belgilariga ko‘ra mehnat sohasida cheklovlar yoki imtiyozlar belgilash kamsitish sifatida baholanadi. Mehnat qilish, ish joyini erkin tanlash, adolatli va qulay mehnat sharoitlariga ega bo‘lish hamda ishsizlikdan himoyalaniish har bir insonning asosiy huquqlaridan hisoblanadi. Shuningdek, teng mehnat uchun teng haq to‘lash prinsipi gender tengligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu huquqlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan normalarga mos ravishda milliy qonunchilikda ham o‘z aksini topgan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash borasida muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2019-yilda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning muhim bosqichi bo‘ldi. Ushbu qonun milliy qonunchilikka “gender” tushunchasini rasmiy ravishda kiritib, uning huquqiy ta’rifini belgilab berdi. Mazkur qonunga ko‘ra, gender xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihatini ifodalaydi. Qonunda, shuningdek, jinsga asoslangan

bevosita yoki bilvosita kamsitishga duch kelgan shaxslarning vakolatli organlarga yoki sudga murojaat qilish huquqi kafolatlangan. Bunda davlat boji undirilmasligi va zarur hollarda yuridik xizmatlar davlat hisobidan qoplanishi nazarda tutilgan.

Gender tengligi masalasining ijtimoiy ong bilan bevosita bog‘liqligini ilmiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, tadqiqotchi Lenora Veytsman boshchiligidagi sotsiologlar guruhi bolalar adabiyotida gender rollarining qanday aks ettirilishini o‘rganib, ko‘plab asarlarda ayollarning ijtimoiy faol obrazlari yetarli darajada yoritilmaganini aniqlagan. Bu holat jamiyatda gender stereotiplarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini anglatadi. Shu sababli, gender tengligini ta’minlash faqat huquqiy mexanizmlar bilan cheklanib qolmasdan, ta’lim, madaniyat va ommaviy axborot vositalari orqali ham qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Jamiyat a’zolarining teng huquq va imkoniyatlardan birdek foydalanishi gender tengligining real ifodasi hisoblanadi.

Gender tengligini ta’minlash borasidagi xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ushbu masala inson huquqlarini himoya qilishning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ayollarga nisbatan kamsitishning oldini olishga qaratilgan qator muhim hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 1967-yilda “Ayollarga nisbatan diskriminatsiyani bartaraf etish to‘g‘risida”gi deklaratsiya hamda 1979-yilda “Ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risida”gi [4] Konvensiyaning qabul qilinishi ushbu yo‘nalishdagi muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur Konvensiyada ayollarga nisbatan kamsitish tushunchasiga aniq huquqiy ta’rif berilgan bo‘lib, unda jinsiy belgi asosida ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va fuqarolik huquqlaridan foydalanishini cheklovchi har qanday harakat kamsitish sifatida baholanishi belgilangan. Ushbu xalqaro norma O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi haqidagi qoidalar bilan uyg‘unlashadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tizimli xarakter kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yilning 28-may oyidagi SQ-297-IV-son qarori, [5] 2021-yilda 2030-yilgacha mo‘ljallangan Gender tengligi strategiyasining qabul qilinishi mamlakatda ushbu yo‘nalishdagi davlat siyosatining aniq va uzoq muddatli maqsadlarini belgilab berdi. Strategiya doirasida saylov huquqlari, davlat xizmati, ta’lim, fan, sport, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida ayollar va erkaklar uchun teng sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, 2021–2022-yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan o‘nlab normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar qabul qilindi. Jumladan, qonunchilikka gender auditi tushunchasining kiritilishi davlat organlari va tashkilotlarida kadrlar siyosati hamda faoliyatni gender tengligi nuqtai nazaridan baholash imkonini berdi. Bu esa amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlashda muhim mexanizm hisoblanadi. Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning institutsional asoslari ham mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasida Gender tenglik masalalari bo‘yicha komissiya, Oliy Majlis Senatida maxsus qo‘mita hamda Oila va xotin-qizlar

qo‘mitasining tashkil etilishi ushbu yo‘nalishdagi davlat siyosatining izchilligini ta‘minlamoqda. Ushbu tuzilmalar xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy va siyosiy hayotga faol jalb etishda muhim rol o‘ynamoqda.

2023-yil 11-aprelda “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun [6] qabul qilingan va qonunchilikka oid o‘zgartirishlar oiladagi zo‘ravonlikni jinoyat sifatida e‘tirof etish, jinsiy xarakterdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish hamda jabrlanuvchilarni himoya qilish mexanizmlarini kengaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Konstitutsiyaviy normalar ayollarning davlat hokimiyatining barcha tarmoqlarida faoliyat yuritish huquqini kafolatlaydi, bu esa gender tengligining real hayotda ta‘minlanayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, gender tengligini ta‘minlash jamiyat taraqqiyoti va oilaviy qadriyatlarning mustahkamlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ayol va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi nafaqat demokratik davlatning muhim belgisi, balki barqaror va adolatli jamiyatni shakllantirishning asosiy sharti sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi.T.:1948.
2. 19-modda
3. <http://lex.uz//docs/-104720> O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi
4. <http://lex.uz//docs/-2685528>.Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida
5. <http://lex.uz//docs/-5466673> 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida
6. <http://lex.uz//docs/6430272> Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida